

“ТАСДИҚЛАЙМАН”

Фарғона шаҳар Ободонлаштириш

бошқармаси бошлиғи

Д.Ходжаева



ТАНЛОВ ХУЖЖАТЛАРИ

УМУМИЙ ҚИСМ

ТАНЛОВДА ИШТИРОК ЭТИШ ТАКЛИФИ

1. Умумий ҳолат

- 1.1 Ушбу танлов ҳужжатлари 22.04.2021 йил кунги 684-сонли Ўзбекистон Республикаси “Давлат харидлари тўғрисида”ги Қонунга (кейинги ўринларда Қонун) асосланиб ўтказилади.
- 1.2 Танлов мавзуси Фарғона шаҳар Ободонлаштириш Бошқармасига қарашли Фарғона шаҳар Нафосат МФЙ Ёшлоробод ва Нафис кучаларини 1.5 қисмини жорий таъмирлаш харажатлари учун.
- 1.3 Танлов охирги қиймати – 518 865 907 (Беш юз ун саккиз миллион саккиз юз олтимиш беш минг туккиз юз етти) сўм. Ушбу қийматдан ортик қийматдаги таклифлар қабул қилинмайди ва кўриб чиқилмайди.
- 1.4 Танлов таклифида кўрсатилган нархлар чегара қийматидан ошмаслиги керак.
- 1.5 Махсулотларни сотиб олиш бўйича техник топшириқлар танлов ҳужжатларининг техник қисмида келтирилган.
- 1.6 Танлов комиссияси йиғилишининг шакллари – онлайн.

2. Танлов ташкилотчилари

- 2.1 Буюртмачининг номи – Фарғона шаҳар Ободонлаштириш бошқармаси (бундан кейин “Буюртмачи” деб номланади).
- 2.2 Комиссиянинг ишчи органи танлов комиссияси (бундан кейин “Комиссия” деб номланади).
- 2.3 Танлов қаида беш аъзодан иборат бўлган буюртмачи томонидан тузилган танлов комиссияси томонидан ўтказилади.

3. Танлов иштирокчилари

- 3.1 Мулкчилик шаклидан қатъий назар ҳар қандай кичик бизнес субъектлари иштирок этишлари мумкин.
- 3.2 4.2-бандда кўрсатилган юридик шахслар бундан мустасно.

4. Танловни ўтказиш тартиби

- 4.1 Танловда иштирок этиш учун танлов иштирокчиси:
 - а) танлов шартлари билан танишиш учун маълумот, махсус ахборот порталида жойлашган танлов ҳужжатларини электрон кўринишда олиш (юклаб олиш);
 - б) танлов ҳужжатлари талабларига мувофиқ тижорат таклифини тақдим этиш;
- 4.2 Иштирокчиларнинг танловда иштирок этишлари тақиқланади:

Қайта ташкил этиш, тугатиш ёки банкротлик босқичида бўлиш, “Буюртмачи” билан суд ёки арбитраж ҳолатида бўлиш, ягона реестрда виждонсиз ижрочилар, солиқлар ва бошқа мажбурий тўловлар бўйича қарзлар, имтиёзли солиқ режимини таъминлайдиган ёки молиявий операцияларни (оффшор зоналар) амалга оширишда маълумотни ошқор қилиш ва тақдим этишни назарда тутмайдиган штатларда ёки ҳудудларда рўйхатдан ўтган ва банк ҳисоб рақамларига эга бўлганлар.
- 4.3 “Буюртмачи” иштирокчини сотиб олиш тартиб-таомилларида қатнашишдан четлаштиради, агар: иштирокчи тўғридан-тўғри ёки билвосита миқознинг ҳар қандай амалдаги ёки собиқ мансабдор шахсини ёки ходимини ёки бошқа давлат органини ҳар қандай шаклда иш хақи, иш таклифи ва бошқа ҳар қандай кимматбаҳо нарсалар, хизматларни таклиф қилиш, бериш ва беришга рози бўлиш. Давлат харидлари жараёнида “Буюртмачи”нинг ҳар қандай ҳаракатларини амалга ошириш, қарор қабул қилиш ёки ҳар қандай рақобат тартибини қўллаш;
- 4.4 Иштирокчи қонунни адолатсиз бузса, рақобат устунлиги ёки манфаатлар тўқнашувига эга.

5. Танлов тили, ўлчов бирлиги

- 5.1 Танлов таклифи “Иштирокчи” ва “Буюртмачи” томонидан амалга ошириладиган барча тегишли ёзишмалар ва ҳужжатлар ўзбек тилида (кириллда) бўлиши керак. Танлов таклифи ўзбек тилида (кириллда) аниқ илова қилинган ҳолда бўлиши керак. Танлов таклифида метр, дона, комплект ўлчов бирлигидан фойдаланиш керак.

6. Танлов таклифи ва уни рўйхатдан ўтказиш тартиби

- 6.1 Махсус ахборот порталида эълон қилинган танлов иштирокчилари танлов эълонида кўрсатилган манзил бўйича, эълонда белгиланган тартибда тижорат таклифларини киритадилар.
- 6.2 Рақобатчи: тақдим этилган маълумотлар ва ҳужжатларни хақиқийлиги ва тўғрилиги учун жавобгар.
- 6.3 Тижорат таклифида нарх қисми танлов шартларига мос келиши ва қуйидаги маълумотларни ўз ичига олиши керак:

Махсулот номи, ўлчов бирлиги, сотиб олиш қиймати (етказиб бериш билан), умумий миқдори, тўлов шартлари, манзили ва банк реквизитлари (тўлик), раҳбарнинг имзоси билан тасдиқланган, (фирменная бланкада ёки штампла) таклифнинг амал қилиш муддати ва бошқалар

6.4 Шунингдек, иштирокчи ташки мухитда (СД, флеш-хотира ва бошқалар) битта таклифни, шу жумладан барча танлов ҳужжатларини тайёрлаши керак, улар сканерлаштирилган шаклда, раҳбарнинг имзоси ва муҳри билан тасдиқланган ҳолда тақдим этилиши керак.

6.5 Тижорат таклифи электрон шаклда тақдим этилади.

6.6 Техник таклиф куйидаги ҳужжатларни ўз ичига олиши керак: техник ҳужжатлар рўйхати (техник маълумотлар варақалари, фойдаланиш бўйича кўрсатмалар ва бошқалар ёки сотиб олинаётган маҳсулотларнинг тўлиқ ва батафсил тавсифини ўз ичига олган бошқа ҳужжатлар).

6.7 Ушбу танловга илова қилинган нарх таклифининг мажбурий ҳужжатлари мавжудлиги;

6.8 “Комиссия” факат ушбу йўриқноманинг талабларига мувофиқ тайёрланган таклифлар учун жавобгардир.

7. Таклифлар бўйича танлов тартиби, уларни баҳолаш тартиби ва мезонлари

7.1 Эълонда танлов ўтказиладиган вақт сифатида кўрсатилган вақт, танлов иштирокчилари томонидан тақдим этилган танлов таклифларини баҳолаш бўйича танлов комиссияси.

7.2 Таклифларни кўриб чиқишда барча ҳужжатларнинг мавжудлиги ва уларни тўғрилиги текширилади. Тегишли ҳужжатлар бўлмаган тақдирда, танлов комиссияси ушбу таклифни кўриб чиқиш ва баҳолаш учун рад этишга ҳақли.

7.3 Танлов комиссияси танлов ғолибини аниқлаш учун рад этилмаган таклифларни танлов ҳужжатларида кўрсатилган мезонларга қараб баҳолайди.

7.4 Танлов иштирокчиси томонидан тақдим этилган ҳужжатларда мавжуд бўлган маълумотларда камчилик аниқланган тақдирда, танлов комиссияси бундай иштирокчини танловда қатнашишдан четлаштиришга ҳақлидир.

7.5 Таклиф Қонун, меъёрий ҳужжатлар ва танлов ҳужжатлари талабларига мос равишда бўлиши шарт ва белгиланган тартибда ишлашлари мумкин.

7.6 Танлов комиссияси агар таклифни тақдим этган танлов иштирокчиси Қонунда ва қарор қабул қилинадиган талабларга жавоб бермаса ёки танлов иштирокчиларининг таклифи бўйича танлов ҳужжатлари талабларига жавоб бермаса, таклифни рад этади.


7.7 Тижорат таклифларини баҳолаш жараёнида танлов комиссияси талабгорлардан уларнинг таклифларига нисбатан тушунтиришлар сўраши мумкин. Ушбу процедура белгиланган тартибда расмий равишда, ёзма равишда танлов ташкилотчиси орқали амалга оширилади. Тушунтириш жараёнида таклифнинг моҳиятига, шунингдек нархнинг ўзгаришига йўл қўйилмайди.

7.8 Танлов ҳужжатлари ва тижорат таклифида кўрсатилган мезонларга асосланиб, шартномани бажариш учун энг яхши шартларни таклиф қилган танлов иштирокчиси ғолиб ҳисобланади.

8. Томонларнинг жавобгарлиги ва мувофиқлиги, махфийлиги.

8.1 Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатларида назарда тутилган жавобгарлик қуйидагиларга тегишли: қирувчи таклифлар ёзувларини юритадиган ва уларнинг ҳавфсизлиги, махфийлигини таъминлайдиган комиссия раиси ва аъзолари, шунингдек таклифларни ўрганиш учун тузилган ишчи гуруҳ аъзолари маълумотларни ошқор қилиш, иштирокчилар комиссиянинг бошқа аъзолари ва жалб қилинган экспертлар билан тил бириктиришга руҳсат бериш, бошқа ноқонуний ҳаракатлар учун. Шартнома бўйича мажбуриятларни бажармаган (миқдорий, сифат, ўз вақтидан етказиб бериш ва техник кўрсаткичлар бўйича) танлов ғолиби Ўзбекистон Республикаси Қонунчилиги ва тузилган шартнома бўйича жавобгар бўлади.

"FARG'ONAYO'LLOYIHA"






"ФЕРГАНАОДОРПРОЕКТ"

Farg'ona avtomobil yo'llarini loyihalash instituti
«FARG'ONAYO'LLOYIHA» instituti MCHJ

Xalq deputatlari Farg'ona shahar kengashining 2022-yil 12-
apreldagi №VI-54-48-11-169-K/22 sonli qarori va unga ilova
qilingan manzilli ro'yhatga asosan Mahalliy byudjet mablag'lari
hisobidan

ISHCHI LOYIHASI

Farg'ona viloyati Farg'ona shahar Nafosat MFY Yoshlarobod,
Nafis ko'chalari 1,5 km qismini joriy ta'mirlash

Institut direktori		Isroilov I.
Loyiha bosh muhandisi		Isroilov SH.
Smeta bo'limi		Ismailova O.

Nusxa №

Arxiv № _____

Qo'qon sh. – 2022 y.



XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA SHAHAR KENGASHINING QARORI

2022 - yil 12 - aprel

VI-54-48-11-169-K/22

Farg'ona shahar hokimligi

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish maqsadida Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2021-yil 22-apreldagi KQ-213-IV-sonli qarori asosida joriy yilning 1-fevralidan 2-aprelga qadar o‘tkazilgan uch bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha shahar moliya bo‘limi mudiri Sh.Inoyatovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashining 2022-yil 23-fevral kungi VI-49-33-11-169-K/22-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablaridan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-apreldagi “Tuman va shahar byudjetlari mablag‘larini



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Фарғона вилояти

150115 Farg'ona shahri, Al-Farg'oniy 36-uy tel 73)-244-68-81 244-68-82 mail: fergexp@rambler.ru
www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: Xagay Aleksandr Andreyevich

Sana: 28-04-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 39135

Obyekt nomi «Farg'ona viloyati Farg'ona shahar Nafosat MFY Yoshlarobod, Nafis ko'chalari 1,5 km qismini joriy ta'mirlash»

Buyurtmachi - «FARG'ONA AVTOMOBIL YO'LLARINI LOYIHALASH» INSTITUTI
MCHJ

Bosh loyihachi - «FARG'ONA AVTOMOBIL YO'LLARINI LOYIHALASH» INSTITUTI
MCHJ

Litsenziya 26.06.2020y/ № АЛ-001006-sonli

Moliyalashtirish manbai - Fuqarolar jamg'armasi va byudjet mablag'lari
xisobidan

Bosh pudratchi - Tender savdolari asosida (agar qaror qabul qiluvchi organ
tomonidan belgilangan bo'lsa)

Qurilish turi Joriy ta'mirlash

Murojaat raqami: № 38428

1. Loyihalash uchun asos

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021 yildagi PQ-5072-sonli hamda 22.09.2021 yildagi PQ-5250-sonli qarorlariga asosan va Xalq deputatlari Farg'ona shahar Kengashining 2022 yil 12 apreldagi VI-54-48-11-169-K/22 sonli qarori.

1.2. Farg'ona shahar obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i A.Nazirov tomonidan tasdiqlangan Loyiha topshirig'i.

1.3. Nuqson dalolatnomasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Elektron yo'nalishda taqdim qilingan smeta xujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Nuqsonlar qaydnomasiga ko'ra ko'cha qismlari shag'al qoplamalardan iborat. Yo'llar sathi past, nishabliklar ta'minlanmagan. Ishchi loyihaga ko'ra asfaltlashtirish belgilangan yo'l asos profilini tug'rilash hamda mayda donali issiq zich asfaltobeton qorishmasidan 5sm qalinlikda qoplama qurish loyihalangan.

Ko'cha qismida bajariladigan to'liq ish turlari, miqdorlari va ashyolarni tashib kelish masofalari nuqsonlar qaydnomasi va ish hajmlari qaydnomasida ko'rsatilgan.

3.2. Joriy ta'mirlashda ko'chalarda bajariladigan to'liq ish turlari, ish miqdorlari, ashyolarni olib kelish manzillari hamda masofalari nuqsonlar qaydnomalarida va ish hajmlari qaydnomasida ko'rsatilgan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

4.1. Smeta xujjatlarida ko'zda tutilmagan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. To'liq ish turlari, ish miqdorlari, ashyolarni olib kelish manzillari hamda masofalari nuqsonlar qaydnomasida ko'rsatilib, tegishli idoralar tomonidan kelishilgan va tasdiqlangan.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ekspertiza jarayonida mutaxasislarning izohlariga muvofiq loyiha hujjatlari ko'rib chiqildi.

6.2. Smeta hujjatlarida joriy ta'mirlash ob'yektlari qiymati buyurtmachi va viloyat AYXBB tomonidan kelishilgan "Narxlarni kelishuv bayonnomasi" da ko'rsatilgan narxlar asosida shakllantirilgan.

6.3. Buyurtmachi jami xarajati, ish xaqi 13384,12 so'm/chelchas (sug'urta bilan) va pudratchining boshqa xarajatlari 17,28% buyurtmachi tasdiqlangan narxlar bayonnomasiga asosan qabul qilindi.

Buyurtmachi tomonidan quyidagi obyekt jami bo'lib 548 625,668 ming so'm taqdim etilgan.

Tekshiruv natijasiga ko'ra quyidagi ko'rsatgichlar aniqlandi:

Qurilish qiymati QQS siz - 451 187,745 ming so'm

QQS 15% - 67 678,162 ming so'm

Qurilish qiymati QQS bilan - 518 865,907 ming so'm

Buyurtmachining xarajatlari - 8 098,576 ming so'm

Jami obyekt qiymati QQS va buyurtmachi xarajatlari bilan - 526 964,483 ming so'm

Iqtisod qilingan mablag' - 21 661,185 ming so'm

6.4. Kamayish qurilish mashinalarini va mexanizm va ba'zi materiallar qiymati sozlash xisobiga amalga oshirildi.

6.5. Import qilingan uskunalar va materiallarning narxi ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmagan.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 yanvardagi 15-sonli qaroriga muvofiq 4-ilova, II bob 8-band va SHNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. Farg'ona viloyati Farg'ona shahar Nafosat MFY Yoshlarobod, Nafis ko'chalari 1,5 km qismini joriy ta'mirlash, loyiha-smeta xujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, tasdiqlashga tavsiya etiladi.

7.2. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.

5. Shahar byudjetlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag'larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a'zolari shaxsan javobgarligi eslatib o'tilsin.

6. Mazkur bayon ijrosini ta'minlash va nazorat qilish komissiya a'zolari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



V.Nazarov

